

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERENARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI

VETERINARIYA JARROHLIGI VA AKUSHERLIK KAFEDRASI

PROFESSOR B.M.ESHBURIYEVNING

**“VETERINARIYA AKUSHERLIGI” FANIDAN
«BEPUSHTLIK VA QISIRLIKLAR. AKUSHER-GINEKOLOGIK
DISPANSERLASH» MAVZUSIDAGI
OCHIQ MA’RUZA DARS**

Samarqand 2025

Tuzuvchi: “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrası
professor B.M.Eshburiyev

Taqrizchilar:

1. “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrası
professori R.M.Tashtemirov
2. Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya
mudiri,v.f.d. Qo‘ldoshev O.O‘.

“Bepushtlik va qisirliliklar. Akusher-ginekologik dispanserlash” mavzusidagi ma’ruzasining dars loyihasi

1. Mavzuning nomi va rejasi.
2. Mavzuning maqsadi va vazifalari.
3. Hayvonlarda akusher-ginekologik dispanserlash, muddatlari
4. Bepushtlik va qisirlilik to’g’risida umumiy tushuncha.
5. Bepushtlik va qisirlilikning bir-biridan farqi.
6. Bepushtlikning sabablari va turlari.
7. Alimentar pushsizlik haqida tushuncha.
8. Hayvonlarni noto’g’ri asrash va foydalanish oqibatidagi (Ekspluatatsion) bepushtlik.
9. Urg’ochi hayvonlarni noto’g’ri urug’lantirish.
10. Jinsiy a’zolarining (ginekologik) kasalliklariga aloqador bepushtlik.
11. Iqlimga aloqador pushsizlik.
12. Yaqin qon-qarindosh urug’lantirish oqibatidagi pushsizlik.
13. Qarilikka (klimakterik) aloqador pushsizlik.
14. Bepushtlikning immunologik sabablari.
15. Tug’ma bepushtlik: infantilizm, germofroditizm, frimartinizm va boshqa shakllari.
16. Mavzuni umumlashtirish.
17. Talabalar savollariga javob berish.
18. Mustaqil ish topshiriqlarini yozdirish.

14-mavzu	“BEPUSHTLIK VA QISIRLIKLAR. AKUSHER-GINEKOLOGIK DISPANSERLASH”
-----------------	---

1.1. Ma’ruzani o‘qitish texnologiyasi

<i>O‘quv soati -2 soat</i>	Talabalar soni - 60 - 65 nafar
<i>O‘quv mashg‘ulot shakli</i>	Kirish. Vizual ma’ruza
<i>Ma’ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Akusher-ginekologik dispanserlash, bosqichlari va o‘tkazish muddatlari. 2. Bepushtlik va qisirlik to‘g‘risida tushuncha. 3. Bepushtliklarning asosiy sabablari va tasnifi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi</i>	Talabalarga bepushtlik va qisirlik to‘g‘risida umumiy tushuncha berish hayvonlarni to‘g‘ri parvarishlash va oziqlantirishni tashkillashtirish, bepushtliklarni bartaraf etish usullarini o‘rgatish va ilmiy bilimni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • bepushtlik va qisirlik to‘g‘risida umumiy tushuncha berish. • hayvonlarni to‘g‘ri parvarishlash va oziqlantirishni tashkillashtirish usullarini o‘rgatish. • bepushtliklarni bartaraf etish usullarini o‘rgatish va ilmiy bilimni shakllantirish 	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> <ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalar mavzuning asosiy tushunchalarini o‘zlashtiradilar. 2. Mavzuga doir aniq bilimlar doirasiga ega bo‘ladilar. 3. Egallangan bilimlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. 4. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga keladilar.
<i>Ta’lim usullari</i>	Ma’ruza, og‘zaki bayon etish, namoyish, suhbat, muammoli vaziyatlar, aqliy hujum.
<i>Ta’limni tashkiliy shakli.</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta’lim vositalari</i>	Darslik, qo‘llanma, ma’ruza matni, rasmlar, jadvallar, shpris kateterlar, UTT apparati, qin oynasi, videoproyektor, tarqatma materiallar.
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Maxsus jixozlangan ma’ruzaxona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov, tezkor so‘rov, aqliy hujum, muammoli savolar orqali so‘rash va baholash.

1.2.Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ma'ruza Bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
1-bosqich. Ma'ruza mashg'ulotiga kirish (10-daqiqa)	1.1. Mavzu va uning maqsadi hamda vazifalarini o'rganishning ahamiyati, undan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. Reja va adabiyotlar beriladi.	1.1. Eshitadi, ko'radi va yozadi. 1.2. Savol beradi, aniqlik kiritadi
2-bosqich. Asosiy bo'lim (60-daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish uchun va bilim darajasini aniqlash maqsadida tezkor muammoli savol-javob o'tkaziladi. 2.2. O'quv didaktik vositalardan foydalanib ma'ruzaning asosiy nazariy qismlari quyidagi loyiha asosida bayon qilingan holda talabalarga yangi ilmiy bilimlar beriladi:	2.1. Eshitadi, eslaydi, tahlil qiladi, so'ralganda javob beradi. 2.2. Eshitadi, ko'radi, yozadi, chizadi, tushunadi, tafakkur qiladi, xotirada saqlaydi va yangi bilimlarni o'zlashtiradi.
3-bosqich. Umumlashtirish va yakunlash. (10-daqiqa)	3.1. Ma'ruza umumlashtiriladi va yakunlanadi. Talabalarning e'tibori takroran asosiy masalalarga qaratiladi. 3.2. Faol talabalar rag'batlantiriladi. 3.3. Uyga vazifa beriladi.	3.1 Eshitadi, aniqlashtiradi 3.2. Topshiriqlar yozib olinadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

1. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. - Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2018 yil.
2. Eshburiev B.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand.: “SamDU tahririy-nashiriyot”, 2020 yil.
3. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. – Samarqand : “SamDVMCHBU Nasr matbaa markasi”, 2024 yil.
4. David E. Noakes Timothy J. Parkinson Gary C. W. England. Veterinary Reproduction and obstetrics. Coperight. 2019 by Elsevier, Ltd. All rights reserved

Internet va Ziyonet saytlari

www.Ziyonet.uz

WWW: zooveterinariya@mail.ru

WWW: sea@mail.net.ru

WWW: veterinary.actavis.ru

WWW. zootechniya.ru


WWW: fvat@academy.uzsei.net

O'QITISH TEXNOLOGIYASI

B.B.B. SXEMASI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<i>(dars boshida yoziladi, Talabining birlamchi bilimini baholash uchun)</i>	<i>(Dars boshida yoziladi, o'qituvchi ishini rejalash uchun)</i>	<i>(Dars oxirida yoziladi, talabining qo'shimcha olgan bilimini baholash uchun)</i>

Bilimlarni faollashtiruvchi savollar:



14- ma'ruza: BEPUSHTLIK VA QISIRLIKLAR. AKUSHER-GINEKOLOGIK DISPANSERLASH

Akusher-ginekologik dispanserlash. Xo'jalikda rejali ravishda akusher-ginekologik va andrologik dispanserlash o'tkazib turilishi lozim. Akusherlik-ginekologik va andrologik dispanserlash tartibi qoramolchilikda batafsil ishlab chiqilgan.

Akusherlik dispanserlash - hayvonlarning bo'g'ozligi, tug'ish, tug'ishdan keyingi davrning normal o'tishi va tug'ilgan buzoqlar hayotini saqlashga qaratilgan kompleks diagnostik, davolash va profilaktik tadbirlardan iboratdir.

Ginekologik dispanserlash. Bu nasilsizlik sabablarini aniqlash, serpushtlik va yuqori sut mahsuldorlikni tiklashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Ginekologik dispanserlash sigirlarda tuqqandan so'ng 30-45 kunda, urg'ochi tanalarda bir yoshga to'lganda o'tkaziladi.

Sigirlarda akusher-ginekologik dispanserlash

№	Tadbirlar	Hayvonlar guruhi	Bajarish muddatlari
1	Yelin tuzilishi bo'yicha tanlash, sun'iy urug'lantirish, sperma sifati nazoratini tashkil etish	Sun'iy urug'lantirish va iydish	Har oyda bir marta
2	Bug'ozlik va bepustlik diagnostikasi: 1) refleksologik usulda	==//==//=	Urug'lantirishdan keyingi 15-30 kunlari
	2) to'g'ri ichak orqali	==//==//=	Urug'lantirishdan 2 oy keyin
	3) hayvonlar qoni, siydik va boshqalarni laborator tekshirish	Sun'iy urug'lantirish va iydish, sut ishlab chiqarish	Talab etilganda
3	Sut bezlari holatini nazorati: 1) sut berish davrida	==//==//=	Har oyda bir marta
	2) sut berishning to'xtashi	Sutdan chiqarilgan	Sutdan chiqarish paytida, 15 kundan keyin va tug'ishiga 10 kun qolganda
4	Tug'ish jarayonlarining kechishi, patologik tug'ishda akusherlik yordami ko'rsatilishi nazorati	Tug'ish	Doimiy ravishda
5	Jinsiy a'zolar invalyusiyasining nazorati, tug'ishdan keyingi kasalliklar va turli bepustliklarning qayd etilishi va davolash	Tug'ish, sun'iy urug'lantirish va razdoy	Tug'ishdan keyingi 5-7 va 14-15 kunlari; tug'ishdan keyingi 30 kun ichida jinsiy kuyikish belgilari kuzatilmaganda

Dispanserlash qo'yidagi tartibda o'tkaziladi: anamnez yig'iladi, oziqlantirish va saqlash sharoitlari o'ganiladi, qonning biokimyoviy va oziqaning kimyoviy tahlili natijalariga asosan rasionning tarkibi va tuyimliliigi aniqlanadi, nasilsiz hayvonlar klinik ko'rikdan o'tkaziladi va bunda oxirgi marta tug'ishi va tug'ishdan keyingi davrning qanday kechganligi hisobga olinadi, ya'ni, jinsiy a'zolari qin va to'g'ri ichak orqali tekshirish natijasida qin, bachadon buyinchasi, tuxum yo'llari va tuxumdonlarning holati aniqlanadi.

Bepushtlik (besplodiye, Steriliakitas) - hayvonlarda ko'payish a'zolari funksiyalarining vaqtinchalik yoki butunlay buzilishi bo'lib, turli sabablarga ko'ra, katta yoshdagi urg'ochi hayvon tuqqandan so'ng, yosh hayvonlar fiziologik

jihatdan yetilgandan keyin bir oy davomida urug'lanmasa ular bepust deb hisoblanadi.

Bepushtlikning belgilari hayvonning uzoq muddat davomida kuyga kelmasligi, bir necha marta urug'lantirishdan keyin ham urug'lanmasligi, jinsiy sikl muddatlarining buzilishi hisoblanadi.

Qisirlik (yalovost) - esa iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, hayvonlarning xo'jalik yili davomida ko'tilgan miqdorda bola bermasligi tushiniladi.

Hayvonlarning qisirligi rejadagi bola olinmasligi, hayvonlar sut mahsuldorligining kamayishi, parvarishlash va oziqlantirish uchun xarajatlarning qoplanmasligi, qisir hayvonlarni bir necha marta urug'lantirish va ularni davolash uchun xarajatlar hisobiga xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Bepushtlik va qisirlikning bir biridan farqi

Bepushtlik - urg'ochi va erkak hayvonlarning noqo'lay sharoitlarda saqlanishi tufayli nasl berish xususiyatlarining izdan chiqishi;

Qisirlik - urg'ochi hayvonlarda o'tgan yil davomida rejalashtirilgan bolani olinmasligi.

Pushtsiz hayvonlar deganda tuqqandan so'ng bir oy davomida urug'lanmagan ona hayvonlar va fiziologik jihatdan yetilgandan keyin bir oy ichida urug'lanmagan urg'ochi hayvonlar tushiniladi;

Bepushtlik	Qisirlik
Bepushtlik - urg'ochi va erkak hayvonlarning noqo'lay sharoitlarda saqlanishi tufayli nasl berish xususiyatlarining izdan chiqishi	Qisirlik - urg'ochi hayvonlardan o'tgan yil davomida rejalashtirilgan bolani olinmasligi
Pushtsiz hayvonlar deganda tuqqandan so'ng bir oy davomida urug'lanmagan ona hayvonlar va fiziologik jihatdan yetilgandan keyin bir oy ichida urug'lanmagan urg'ochi hayvonlar tushiniladi	Qisir hayvonlar deganda xo'jalik yilida bola bermagan katta yoshdagi va fiziologik yetilgan (bola berishi rejalashtirilgan) yosh hayvonlar tushiniladi
Pushtsizlik - biologik xususiyat bo'lib, har bir hayvonni tekshirish orqali xo'jalik yilining har bir kunida hisobga olinishi mumkin	Qisirlik - iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, uni faqat xo'jalik yili tugagandan keyin hisob-kitoblar va inventarizatsiya natijalariga ko'ra anqlash mumkin
Pushtsizlikni tugatish bilan har bir ona hayvondan bo'g'ozlik va bo'g'ozlikdan keyingi davr uchun kerakli muddatlarda bola olishga erishiladi	Qisirlikni tugatish bilan har 100 bosh sigirdan 100 bosh buzoq olishga erishiladi

Bepushtlik turlari:

1. Tug'ma bepushtlik

- Infantilizm
- Frimartinizm
- Germofroditizm
- Kriptorxizm

2. Ortirilgan

- Alimentar; Eksploatatsion
- Qarilik; Iqlimga oid
- simptomatik; sun'iy.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bepushtlik tug'ma bo'lishi ham mumkin. **Tug'ma bepushtlik:** infantilizm, germofroditizm, frimartinizm va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

1. **Infantilizm deb**, urg'ochi va erkak hayvon jinsiy a'zolarining to'liq yetilmay qolishi yoki hayvon urug'lantirish yoshiga yetganida jinsiy siklning bo'lmasligiga aytiladi.

2. **Germafroditizm** (xunasa) deb bitta individning o'zida urg'ochi va erkaklik jinsiy a'zolarining bo'lishiga aytiladi. Bunday holatda jinsiy a'zolar odatda rivojlanmay qoladi. Haqiqiy germafroditizm juda kamdan-kam uchraydi.

3. **Frimartinizm** paytida urg'ochi hayvonning ba'zi jinsiy a'zolari rivojlanmay qolgani holda klitor haddan tashqari rivojlanib, shaklan erkaklik jinsiy a'zosiga o'xshab qoladi. Bu patologiya asosan, sigirlar har xil jinsli egizak tuqqanida urg'ochi buzoqda kuzatiladi.

Alimentar bepushtliklar

Hayvon yetarlicha oziqlantirilmashligi - organizm zaiflashadi, bu jinsiy jarayonlarga ta'sir etadi (kuyikish va ovulyasiya bo'lmaydi). Hayvonlar oqsil, uglevod yoki yog'larga boy bir xildagi oziqalar bilan uzoq muddat boqilganda tuxumdonlar funksiyasi susayib, ularning maxsus to'qimasi asta-sekin yog' kletchatkasi bilan almashinadi. Semirib ketgan hayvonlarning tuxumdoni kichrayibgina qolmay, balki zichlashadi ham, bunda urg'ochi hayvon avvaliga qisqa muddatga kuyukadi, keyin esa butunlay kuyukmaydi.

Retinol (A vitamini) - yetishmovchiligi alohida va katta ahamiyatga ega bo'lib, tuxum xujayrasining degenerativ o'zgarishlari, bachadon shilliq pardasi epiteliysida o'zgarishlar kuzatiladi va natijada unga murtakni yopishishi yomonlashadi;

B guruhi gipovitaminolari - jinsiy bezlar degenerativ o'zgarishlarga uchraydi va jinsiy siklning buzilishiga sabab bo'ladi;

Kalsiferol (D vitamini) jinsiy a'zolar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lmasada, mineral moddalar almashinuviga ta'sir etib kalsiy va fosfor tuzlarining qondagi konsentratsiyasini me'yorida bo'lishini ta'minlab turadi. Uning yetishmovchiligida oksidlanish-qaytarilish jarayonlari, ko'payish funksiyalar (tuxumdonlar skleroz iva atrofiyasi) izdan chiqadi;

Tokoferolning (E vitamini) yetishmovchiligida bo'g'ozlikning kechishi izdan chiqadi;

Yod - markaziy nerv tizimi qo'zg'aluvchanligini oshiradi, moddalar almashinuvlarini kuchaytiradi, jinsiy faoliyatni faollashtiradi. Rasionda yod yetishmaganda urg'ochi hayvonlarda jinsiy yetilish kechikadi, ko'pincha jinsiy sikl to'liq bo'lmaydi, follikulyar kista, bepushtlik, abortlar, yo'ldoshni ushlanib qolishi va boshqa kasalliklar rivojlanadi.

Kobalt - yetishmaganda sigirlarda anemiya, jinsiy siklning to'liq bo'lmasligi, otalanishning yomonlashishi, abort, yo'ldoshni ushlanib qolishi, bachadon subinvalyusiyasi, endometritlar, tug'ishdan oldin yoki keyin yotib qolish kasalliklari ko'p qayd etiladi.

Marganes - hayvonlar organizmida muhim vazifalarni bajaradi. U gipofiz bezining oldingi bo'lagida tuxumdonlar va sut bezi funksiyalariga ta'sir etuvchi gormonlar ishlab chiqarilishida qatnashadi. Marganes yetishmovchiligida jinsiy organlarning rivojlanishi yomonlashadi, jinsiy yetilish kechikadi, otalanish va homilaning yashovchanligi pasayadi, bola tashlashlar qayd etiladi. Uning ortiqchaligida oziqalardagi temirning hazmlanishi yomonlashadi va organizmdagi yod miqdori kamayadi.



Mis - tuxumdonlar, gipofiz va gipotalamusning me'yorida faoliyati uchun zarur.

Mikroelementozlar bilan kasallangan bepusht sigir

Simptomatik bepushtliklar yuqumsiz, yuqumli va invazion

kasalliklar oqibatida urg'ochi va erkak hayvonlar jinsiy funksiyalarining buzilishi hisoblanadi. Bular orasida akusher-ginekologik kasalliklar (tuxumdon, tuxum yo'llari, bachadon, qin, yelin kasalliklari) katta salmoqqa ega va naslsiz

«Mikrovit» preparatining tarkibi

Tarkibi	O'lchov birligi	Profilaktik dozasi
Bentonit	g	50
Mis sulfat	mg	200
Kobalt xlorid	mg	40
Marganes sulfat	mg	200
Rux sulfat	mg	250
Kaliy yodid	mg	150
Vitamin A	ming HB	240
Vitamin D ₃	ming HB	160
Vitamin E	mg	100


hayvonlarning 15-35 foizini tashkil etadi. Natijada, tuxumdon vazifasi buziladi, bachadon qisqarmaydi, undagi muhit o'zgaradi va spermiylarning yashashi hamda harakati uchun sharoit bo'lmaydi. Bepushtlikni yuzaga keltiruvchi sabablar jinsiy siklni buzilishi, nimfomoniya, tuxum xujayrasi va zigotaning o'lishi, tuxum yo'lining torayishi yoki yopilib qolishi natijasida zigotaning bachadonga tushmasligi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bepushtlikka sabab bo'ladigan ginekologik kasalliklar orasida jinsiy a'zolaridagi yallig'lanish jarayonlari katta salmoqqa ega. Bu kasalliklar ko'pincha surunkali kechadi va jinsiy a'zolarining morfologik o'zgarishlari hamda funksional kamchiliklari bilan birga davom etib, hayvonni vaqtincha yoki umrbod bepushtligiga sabab bo'ladi, organizmning umumiy holatiga ta'sir etadi va ayrim hollarda o'limiga sabab bo'ladi.



Yallig'lanish jarayonining joylashishi va xarakteriga ko'ra, bepushtlikning mohiyatini to'rt omil bilan izohlash mumkin: 1) urg'ochi hayvonning jinsiy yo'llarida spermiylarning noqulay sharoitga tushganligi uchun o'lishi yoki tuxum xujayrasigacha etib borolmasligi; 2) tuxum xujayrasi yoki murtakning o'lishi; 3) murtakni bachadon bo'shlig'iga o'ta olmasligi; 4) jinsiy siklni buzilishi (ovulyatsiya, suyuqlik oqishi, jinsiy qo'zg'alish va jinsiy moyillikning bo'lmasligi).

Yuqumli va parazitlar kasalliklar oqibatidagi bepushtliklar. Brusellyoz, leptospiroz, salmonellyoz, kampilobakterioz, yuqumli rinotraxeit, trixomonoz va boshqa kasalliklar simptomatik bepushtliklarni keltirib chiqaradi. Jinsiy a'zolarida uchraydigan yuqumli va parazitlar kasalliklar to'g'risida boshqa qo'llanmalarda ma'lumot beriladi.



Rektoservikal uslubda sun'iy urug'lantirishda bir marta ishlatiladigan steril g'ilof sigir jinsiy kupayish a'zolari ichki devorlariga tegadigan birgina asbob bo'lib, jinsiy a'zolariga mikroorganizmlarning kirish xavfini yo'qotadi.




**Sigirda
"harakatsizlik
refleksi**



Katetrni to'g'ri va noto'g'ri joylashishi



Bachadon bo'yinchasiga katetrni kiritish



Fermer sigiri uchun sharoitni o'rganmoqda

Ovsinch – sigirlarda jinsiy siklni sinxronlash sxemasi

0-kuni (Dushanba, 8,00) – GnRH (**Liserelin** preparati) muskul orasiga 4 ml;

7-kuni (Dushanba, 8,00) – PGF2 (**Estrofan** preparati) muskul orasiga 2 ml;


8-kuni (Seshanba, 8,00) – PGF2 (**Estrofan** preparati) muskul orasiga 2 ml;

9-kuni (Chorshanba, 16,00) – GnRH (**Liserelin** preparati) muskul orasiga 2 ml;

10-kuni (Payshanba, 8,00) – sun'iy urug'lantirish (Liserilen qullanilgandan 16 soatdan keyin, ya'ni soat 16,00 ga ovulyatsiya kutiladi.

Eslatma: kursatilgan soatlarga aniq amal qilish kerak. Ushbu sxemani 14 oylikdan katta, t.vazni 320 kg dan yuqori bo'lganda qo'llash mumkin.

CHORVACHILIKNI JADALLASHTIRISH SXEMASI



NAZORAT SAVOLLARI

1. Bepushtlikning sabablari va turlari
2. Hayvonlarda pushsizlikning immunologik sabablari nimalar bo'lishi mumkin?
3. Ratsionda yod etishmaganda bepushtlik kuzatilishi mexanizmi qanday?
4. Akusher-ginekologik dispanserlash o'tkazishning ahamiyati?
5. Akusher-ginekologik dispanserlash necha bosqichdan iborat?
6. Ginekologik dispanserlash sigirlarda qaysi muddatlarda o'tkasildi?

ЭЪТИБОРЛАРИНГИЗ

УЧУН РАХМАТ!

